

**Bobning nomi:** Femicide as Terrorism: The Case of Uzbekistan’s Unveiling Murders

**Muallif:** Marianne Kamp

**Kitob nomi:** Sexual Violence in Conflict Zones

**Sarlavhaosti:** From the Ancient World to the Era of Human Rights

**Muharrir:** Elizabeth D. Heineman

**Nashriyot:** University of Pennsylvania Press (2011)

**Doimiy havola:** <https://www.jstor.org/stable/j.ctt3fhfgp.6>

---

Mazkur maqola professor Marianne Kamp ruxsati bilan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima O‘zbekistonda gender zo‘ravonlikka qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zo‘ravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, o‘zbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

**Tarjimon:** Kamola Shorustamova

**Tarjima sanasi:** 2025-yil

Tarjima Shveytsariyaning O‘zbekistondagi Elchixonasi ko‘magida tayyorlangan.

---

### **Tarjimadan foydalanish shartlari:**

Mazkur tarjimani erkin o‘qish, ta’limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola ko‘rsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi ko‘rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

<https://www.jstor.org/stable/j.ctt3fhfgp.6>

### **3-bob**

## ***Femitsid – terrorizm sifatida: O‘zbekiston yuz ochish qotilliklari misolida***

*Marianne Kamp*

“Mojaroli hudud” ko‘pincha urush maydonini anglatishi mumkin, biroq ko‘plab mojaroli hududlarda davlat zo‘ravonlik ustidan monopoliyaga ega bo‘lmaydi. Shu bo‘shliqdan foydalanib, turli guruhlar davlat vakillariga qarshi kuch ishlatish orqali o‘z hukmronligini o‘rnatishga harakat qiladilar. 1917-yilgi Bolshevik inqilobidan so‘ng, Sovet hukumati va Kommunistik partiya sobiq Rossiya imperiyasi hududlarining ko‘p qismini nazorat ostiga olish uchun ko‘plab raqiblarga qarshi kurash olib bordi. 1918-yildan 1923-yilgacha bo‘lgan ilk yillarda bu kurash ochiq harbiy to‘qnashuvlarga aylanib ketdi. Fuqarolar urushi yakunida Qizil Armiya “Oqlarni” mag‘lub etdi, biroq Sovet hududlarining barchasida ham ziddiyatlar to‘xtamadi. Markaziy Osiyoda “bosmachilar” deb atalgan qurollangan qo‘zg‘olonchi guruhlar Sovet hukmronligiga qarshi kurash olib borib, o‘zlarini ta‘minlash va dehqonlarning hamkorligini qo‘lga kiritish maqsadida qishloq jamoalariga hujum qilardilar. Sovet davlati qishloq tumanlari ustidan hukmronlikni o‘rnatishga o‘jiz bo‘lganidan, Markaziy Osiyoning kambag‘al dehqonlaridan sadoqat topish uchun ularga imtiyozlar taklif qilar, bir tomondan esa bosmachilarning tarafdorlarini, boylarni va qishloq yetakchilarini zo‘ravonlik orqali jazolardi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida bosmachi hujumlari davom etdi, biroq shu bilan birga Markaziy Osiyoning qishloq hududlarida sovet hokimiyati kuchaya boshladi: mahalla kengashlari tashkil etildi, yer islohoti o‘tkazildi, va an‘anaviy elita vakillari tahdid ostiga olindi. Bu elitlar esa o‘z mavqelarini saqlab qolish uchun o‘z resurslarini safarbar qilishga urindilar.

Aynan shu kontekstda Kommunistik partiyaning tezkor madaniy o‘zgarish tashabbuslaridan biri yangi, genderga oid nizolar maydonini yuzaga chiqardi. 1927-yildan 1930-yilgacha o‘zbek erkaklari paranji, ro‘mollarini yechgan o‘zbek ayollariga hujum qilib, ularni o‘ldirishdi. Bu qotilliklar “Hujum”ga nisbatan zo‘ravon ijtimoiy javob edi. “Hujum” – Kommunistik partiyaning Markaziy Osiyo musulmon ayollarining hayotini o‘zgartirishga qaratilgan kampaniyasi bo‘lib, unda huquqiy tenglikni joriy etish, ular uchun maktab va ish o‘rinlari ochish hamda ayollarni Kommunistik partiya qo‘shilishga undash maqsad qilingan edi. O‘zbekistonda ommaviy paranjini tashlash marosimlari Hujumning eng kuchli ramziga aylandi. 1927–1930-yillar oralig‘ida Hujum davrida paranjisini yechgan 2 500 ga yaqin ayol o‘ldirilgani taxmin qilinadi. Rasmiy ravishda ateist bo‘lgan Kommunistik partiya o‘zbek oilaviy va jamoaviy hayotiga bevosita aralashuvchi keskin ijtimoiy o‘zgarishni ilgari surdi. Ko‘plab musulmon ruhoniylari bu

tashabbuslarni qoralab, boshqa o'zbeklarni paranjisiz ayollarga hujum qilishga va ularni o'ldirishga chorladilar. Qotillarning ko'pi jabrlanuvchilarning o'z qarindoshlari bo'lsa, qolganlari qo'shnilar yoki jamoa a'zolari edi.

Bir necha yil davomida Kommunistik partiya bunday qotilliklarni “kundalik hayot jinoyatlari” sifatida ko'rib keldi. Ushbu toifaga ko'pxotinlilik va voyaga yetmaganlar nikohi ham kirar edi. Shu orqali partiya ularni o'zbek jamiyatining oilaviy hayotga partiya aralashuviga ehtiyojini isbotlovchi dalil deb baholadi. Kundalik hayot jinoyatlari Sovet Konstitutsiyasining huquq kafolatlarini buzgan bo'lsa-da, boshqa jinoyatlardan farqli o'laroq, ularning sababi urf-odatga bog'liq deb qaralgan. Bu esa jinoyatchilarni “orqada qolgan” sifatida belgilab, ularning javobgarligini yumshatgan.

Ba'zi tarixchilar partiya Hujumni muddatidan oldin yoki xato boshlaganini, shu bilan himoyasiz ayollarga qarshi zo'ravonlik to'lqinini qo'zg'atganini ta'kidlaydilar<sup>1</sup>. Partiyaning qotilliklarni “kundalik hayot jinoyatlari” deb baholashi ham, bu zo'ravonlik to'lqinini partiyaning o'zi keltirib chiqarganini ta'kidlovchi ilmiy qarashlar ham Markaziy Osiyo jamiyatida ayollarga qarshi zo'ravonlik, jumladan qotillikni tabiiy hol deb qabul qilgan edi. Na partiya, na olimlar erkaklar nega davlatning majburiy choralariga yoki ayollarning yuzini ochishiga ayollarni o'ldirish orqali javob berganini savol ostiga qo'yishmadi. Antropolog Shirin Akiner shunday yozadi: “Markaziy osiyoliklar uchun [Hujum] bir yengilish va shafqatsiz tajovuz bo'ldi; jamiyatning sha'ni va qadr-qimmati to'satdan va dahshatli tarzda tahqirlandi.”<sup>2</sup>

Sovet davlati radikal o'zgarishlar boshlab yubordi, ammo davlatni faqat qo'zg'atuvchi sifatida talqin qilish biryoqlama yondashuvdir. Ayollarni o'ldirgan yoki zo'rlagan davlat emas, balki o'zbek erkaklari edi. Ritorik ifodalarni bir chetga qo'yganda, yuzni ochishga majburlashni zo'rash yoki qotillikka tenglashtirib bo'lmaydi. Bu qotilliklarning davriy va madaniy konteksti ularni izohlashga yordam beradi, biroq undan ham muhimrog'i — qotillarning maqsadlari haqidagi savollardir. Qotillik to'lqiniga qarshi kurashishda davlatning strategiyalaridan biri ularning og'irlik darajasini qayta baholash edi: huquqiy toifasini “kundalik hayot jinoyatlari”dan “terrorizm” va “kontr-inqilob”ga o'tkazish orqali.

O'zbekistondagi qotilliklar to'lqini jamiyat ustidan nazorat uchun kurash fonida yuz berdi. Bu kurashda diniy g'oyalar siyosatini belgilab bergan guruhlar va dinga keskin qarshi chiqqan hukumat to'qnash kelgan edi. Kommunistik partiya ayollar tengligini ta'minlashni iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni o'zgartirish, ya'ni “sotsializm qurish” maqsadining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rdi. Islom nomidan so'zlagan ruhoniylar esa diniy jihatdan asoslangan femitsidga (ayollardan nafratlanish asosidagi qotillik) da'vat qildilar. Bu terrorizmning bir shakli bo'lib, ayollarni diniy yetakchilar “ilohiy iroda” deb e'lon qilgan ijtimoiy tartibga majburan moslashishga undashga qaratilgan edi.<sup>3</sup> Diniy da'vat bo'lmagan taqdirda ham O'zbekistonda paranjisini yechgan ayollarning qotilligi yuz berishi mumkin

edi, biroq bu miqyosda emas. Bu bob faqat O‘zbekistonni ko‘rib chiqsa ham, lekin shunga o‘xshash diniy da‘vatli femitsid to‘lqinlari boshqa mo‘jaroli hududlarda ham kuzatilgan, xususan, 1990-yillarda Jazoirida.<sup>4</sup>

Bu femitsid to‘lqini aniq genderlashgan hodisa edi. Ayollar aynan ayol bo‘lgani uchun, o‘zbek jamiyati ruxsat bergan chegaradan chiqqani uchun va shu orqali ular Kommunistlar bilan siyosiy jihatdan bir safda deb ko‘rilgani, o‘zbek jamiyatiga qarshi deb baholangani uchun o‘ldirilgan. Bu mojaroda qotillik genderga asoslangan zo‘ravonlikning eng keskin shakli bo‘lib, xabar qilingan qotilliklar soni tajovuz va kaltaklash holatlaridan ko‘proq qayd etilgan. Davlatning nazorat organlari O‘zbekiston bo‘ylab yetarli darajada faol bo‘lgani uchun qotillik ishlarida dalillar to‘plandi va ularni yashirish oson bo‘lmadi. Kaltaklash va tajovuz holatlarining kamroq qayd etilishi bu hodisalar soni chindan ham kam bo‘lganidanmi yoki jabrlanuvchilar qo‘rqib xabar bermaganidanmi noma‘lum. Yuzini ochgan ayollarning o‘ldirilishi, tajovuzga uchrashi va kaltaklanishi tobora kuchayib borayotgan qo‘rquv muhitini shakllantirdi hamda ayollarning qaytadan yopinishiga olib keldi.

Hujum davrida yuz bergan ayollarga nisbatan zo‘ravonliklarning ko‘pi qayd etilgan bo‘lsa-da, ushbu bobning diqqat markazi femisidadir. Cheryl Benard, urush davridagi zo‘rlashni muhokama qilar ekan, shunday deydi: “Tajovuz ruhiy jarohat yetkazadi, ammo u, baxtimizga, butun bir aholining barbod bo‘lishiga olib kelmaydi.”<sup>5</sup> Maqsadli ravishda muayyan guruh a‘zolarini (bu holda, yuzini ochgan o‘zbek ayollarini) o‘ldirish esa zo‘rlashdan niyat va ta’sir jihatidan butunlay farqlanadi.

Nega Hujum davrida shuncha erkak ayollarni ochiq chiqqani uchun o‘ldirdi? Men bir nechta bog‘liq javoblarni taklif qilaman, ular “nomus”, siyosiy o‘zgarish va diniy da‘vatni qamrab oladi. Bu ayollarning ommaviy o‘ldirilishi (femitsid) boshqa sharoitlarda uchraydigan “nomus qotilliklari”ga qiyoslanishi mumkin, shuningdek, AQShdagi irqiy asosdagi lynch hodisalari bilan ham taqqoslanadi. “Nomus qotilligi” paradigmasiga murojaat qilish mantiqanroq ko‘rinsa-da, lynch bilan qiyoslash ushbu qotillik to‘lqinining ayrim jihatlarini ochib beradi. Chunki qotillarning ko‘pi oila a‘zolari emas, balki davlatga qarshi zo‘ravon noroziligini ifoda etgan siyosiy muxoliflar edi va ular ayollarni guruh a‘zosi sifatida, ma‘lum maqsadda o‘ldirgan. Tarixchi W. Fitzhugh Brundage linchni shunday tasvirlaydi: “Har bir lynch tomoshasi janubiy jamiyat tartibini mustahkamlashga xizmat qilgan drama edi. Bu dramatik spektakl barcha janubliklar — erkak va ayol, qora va oq tanlilarga ijtimoiy iyerarxiyada o‘z o‘rnini aniq ko‘rsatib berdi.”<sup>6</sup> Hujum davridagi paranji tashlagan ayollarni o‘ldirish ham shunga o‘xshash maqsadga xizmat qilgan. Patriarxal ijtimoiy tartibni buzib, oilaviy va diniy me‘yorlarga qarshi chiqqan bir necha ming o‘zbek ayoli o‘ldirilgan. Diniy yetakchilar qotilliklarni qo‘zg‘atgan va ularni oqlagan. Qotillar esa o‘z qurbonlari bilan bir jamoa yoki hatto bir oiladan bo‘lib, ularga qilgan ishi “nomusni tiklaydi” deb aytilgan.<sup>7</sup> Shafqatsiz qotilliklar

boshqa ayollarga paranjini tashlamaslik yoki Sovet davlatiga qo‘shilmaslik kerakligini “dars” qilgan. Ochiq chiqqan ayollarni o‘ldirish orqali tez yemirilayotgan ijtimoiy tartibni qayta tiklashga, boshqa ayollarni qo‘rquv ostida bo‘ysundirishga urinishgan. Ayollarni o‘ldirish Sovetlarning O‘zbekistondagi hukmronligiga real ta’sir qilmagan bo‘lsa-da, u diniy asoslangan nafratni va partiyaning qat’iy dinga qarshi siyosatiga qarshilikni ifoda etgan.

Oxir-oqibat, Sovet davlatining bu qotillik to‘lqiniga bergan talqini o‘zgardi. Davlat amaldorlari diniy targ‘ibot asosiy omil bo‘lganini va qotilliklar siyosiy maqsadni ko‘zlaganini anglagach, bunday jinoyatlarni “kundalik hayot jinoyatlari” deb atashdan voz kechib, ularni terrorizm sifatida baholay boshladilar. Mening bu femitsid to‘lqinini “gender terrorizmi” sifatida tahlil qilishim ham Sovet qonunchiligidagi ushbu o‘zgarishdan kelib chiqadi.

### **Madaniy va iqtisodiy inqilob davri: ijtimoiy to‘qimani parchalash**

1920-yillarning boshlarida O‘zbekiston shaharlarida zamonaviy ta’lim bilan bog‘liq bo‘lgan yoki Kommunistik partiyaning Ayollar bo‘limida faoliyat yuritgan bir nechta o‘zbek ayollari jamiyatdagi o‘zgarishga sodiqligini ifoda etish ramzi sifatida paranjisiz chiqishdi. O‘zbekistondagi o‘ranib yurish madaniy jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, ayollar bosh va badanini yopuvchi paranji va yuzni to‘liq berkitib turuvchi ot junidan tayyorlangan chachvon kiyishardi. 1927-yilda partiya ochiq chiqishni o‘z ramziga aylantirib, ayollarni “paranjini tashlashga” chaqirdi va ochiq chiqish ayollarning uy qamog‘ini tugatib, o‘zbek oilaviy va ijtimoiy hayotining dinamikasini o‘zgartiradi, deb e’lon qildi. Ayrim ayollar ochiq chiqish tadbirlarida ishtirok etishni xohlashgan bo‘lsa-da, ko‘plari majburlangan edi. Partiya 1927-yil 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kunida o‘tkazilgan ommaviy paranji tashlash yig‘ilishlaridan keyin hujumlar boshlanib ketdi. Tez orada ko‘plab ayollar yana paranjini qayta kiyishga majbur bo‘ldi, chunki ochiq chiqqan va faol ayollarga qarshi qotillik va hujumlar keskin oshib bordi.

Hujum Kommunistik partiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatining faqat bir qismi edi va u O‘zbekiston iqtisodiyoti hamda madaniyatiga qarshi olib borilgan boshqa hujumlar bilan hamohang edi. 1927-yilda Kommunistik partiya Markaziy Osiyoda islomga qarshi siyosat olib borib, asosiy diniy muassasalarni — maktablar, madrasalar, shariat sudlari, ko‘plab masjid va ziyoratgohlarni yopdi. Bu siyosat musulmon ulamolarini lavozim, daromad, ta’sir va rasmiy obro‘dan mahrum qildi. 1920–1930-yillar davomida hukumat ko‘plab musulmon ulamolarini hibsga oldi, surgun qildi yoki qatl etdi.<sup>8</sup> 1925-yildan boshlab amalga oshirilgan yer islohoti jarayonida boy yer egalari o‘z mulklaridan ayrilib, ular kambag‘allarga tarqatildi. Hujum davom etar ekan, Sovetlar Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirishni ham boshladi. Bu dasturlar boylar va diniy yetakchilar mulki, ijtimoiy ta’siri va hayotini xavf ostiga qo‘ydi. Eski elitalar o‘z

kapital manbalaridan ayrilar ekan, yangi, sovetparast guruhlar jamiyat ustidan nazoratni qo‘lga kiritdi.

O‘zbek jamiyati Hujumni ulkan ijtimoiy beqarorlikning bir elementi sifatida tushundi.<sup>9</sup> OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi, maxfiy politsiya)ning qishloq kayfiyati haqidagi hisobotida bir oddiy dehqon qo‘shnilariga shunday degani keltiriladi: “Sovet hukumati yer islohotini amalga oshirdi, endi ayollar masalasida ham islohot qilmoqda: ikkinchi xotinlari borlarning xotinlarini olib, yerlari yo‘q dehqonlarga bermoqda. Paranjini olib tashlash — Sovet hukumatining shu islohotni amalga oshirish vositalaridan biridir.”<sup>10</sup>

Rossiya mustamlakachiligi (1865–1917) ga qisman javoban o‘zbek jamoalari diniy marosimlar va ruslardan ajralib turish orqali chegaralar o‘rnatgan edi. Inqilobdan oldin musulmon ayollarning paranjisi ushbu chegara ramzi sifatida qat’iy talab qilingan.<sup>11</sup> Yer islohoti, kollektivlashtirish, islomiy muassasalarni yopish va eski elitlarni sovetparast amaldorlar bilan almashtirish orqali Sovet hukumati o‘zbek jamiyatidagi jamoaviy chegaralarni saqlab kelgan tuzilmalarni yo‘q qilishni maqsad qilgan. Ayollarning ochiq chiqishi ham shu kengroq dasturiy siyosatning bir qismi edi.

## **Zo‘ravonlik va yuzni ochish**

1927 yilgacha ayrim o‘zbek ayollari yakka tartibda yuzini ochishgan, ular haqorat va qarshilikka duch kelishgan, ammo o‘ldirilmagan. Ayollarni faqat Hujum boshlangachgina, ya’ni Kommunistik partiya yuzni ochishni siyosiy aktga aylantirgach, o‘ldirish boshlandi. Yuzini ochish partiyani qo‘llab-quvvatlashning ko‘rsatkichi sifatida talqin qilina boshladi. Xalq orasida yuzini ochgan ayollar fohishalik bilan bog‘lab ayblandi, ular zo‘rlanganligi haqida mish-mishlar tarqaldi va ko‘plab ruhoniylar erkaklarni “yuzini ochgan ayollarni jazolash”ga chaqirdi. Davlat OGPU va mahalliy hokimiyatlar orqali yuzni ochishga qarshi zo‘ravonlik va uning ijtimoiy sabablari haqida hisobotlar yig‘di.<sup>12</sup>

Buxoroda, ayollar ro‘mol bilan ya’ni to‘liq parangi kiymagan holda ko‘ringanda ruhoniylar: “Mana musulmon ayollar o‘zlarini qanday xor qilishdi... Ular butun xalqni kofir qilmoqchi. Musulmon ayollar dindan yuz o‘girmoqda va boshqa yo‘lga o‘tmoqda”, – deyishgan. Ba’zilar hatto qo‘shni davlatlar yuzni ochish siyosati uchun Sovet hukumatiga qarshi hujum qilishini targ‘ib qilishgan. Bir guruh yuzini ochgan buxorolik ayollar mashina karvonida masjid yonidan o‘tib ketganida, namozda bo‘lgan erkaklar ularni so‘kib, yuzini ochgan ayollar fohishalikka kirishganini aytishgan. Tuda-Maidon qishlog‘ida esa bir diniy yetakchi qishloq kengashi raisining yuzini ochgan xotini haqida soxta dalillar to‘plab, uni fohishalikda ayblagan. Natijada u bosim ostida qayta parangi kiyishga majbur bo‘lgan.<sup>13</sup>

O‘zbek jamiyatida bunday tuhmatlar juda jiddiy oqibatlariga olib kelardi. Masalan, tibbiyot texnikumida o‘qigan talabachi qiz, Pulatova, yuzini ochgani uchun kursdoshlari uni fohisha deb haqorat qilganidan so‘ng o‘z joniga qasd qilgan.<sup>14</sup> Yuzini ochgan ayollarning oilalari ham haqorat va tuhmatlarga chiday olishlari kerak bo‘lardi. Ba’zi erkaklar yuzini ochgan xotinlarini taloq qilgan. Ayollarning ayrim o‘ldirilishlari, shubhasiz, oilaviy “nomusni tiklash” urinishlari edi – ya’ni, qarindoshlariga “sharmandalik” keltirgan ayollarni o‘ldirish orqali.<sup>15</sup>

Birinchi ommaviy e’tiborni tortgan qotillik 1927 yil 8 mart – Xalqaro Xotin-qizlar kuni ommaviy yuzni ochish marosimidan keyin sodir bo‘ldi. Farg‘ona vodiysining Shahrixon tumanida Xotin-qizlar bo‘limi rahbari Hadichaxon G‘oibjon qizi ayollarni bayram kuni yuzlarini ochishga undagan edi. Bir hafta o‘tib u bir guruh erkaklar tomonidan o‘ldirildi. Bu voqea o‘zbek tilidagi asosiy gazeta Qizil O‘zbekistonda bir necha hafta davomida keng yoritildi. Oradan ko‘p o‘tmay, OGPU xabar berishicha, Shahrixondagi partiya a‘zolari va Komsomol yig‘ilishlarida yuzini ochgan ayollarni fohisha deb atashgan, natijada yuzini ochgan o‘n sakkiz nafar ayol qayta paranji kiyishga majbur bo‘lgan.<sup>16</sup>

Ko‘plab qishloqlarda ijtimoiy yetakchilar aholiga yangi, istalmagan davlat aralashuviga qarshi chiqishni, ya’ni ishtirok etganlarning barchasiga hujum qilishni targ‘ib qildilar. Andijonda militsiya hisobotlariga ko‘ra, dehqonlar, boylar va ruhoniylar yuzni ochishga qarshi bir xil iboralarni ishlatgan: “*Xudo taqiqlaydi,*” “*Men taqiqlayman,*” va “*U fohishaga aylanadi.*” Qashqadaryo viloyatida boylardan biri Krimjon o‘g‘li shunday degan:

*“Hukumat ayollarning yuzini ochishini tobora ko‘proq talab qilmoqda. Agar ular ochishsa, biz ularni ham, bunga undaganlarni ham o‘ldiramiz. Keyin hukumatga hayotimizga aralashmasin, deb aytamiz.”*<sup>17</sup>

1920-yillarda yuzni ochishni qo‘llab-quvvatlagan ham, majburiy ochganini eslagan ham keksa ayollar ruhoniylarning “yuzini ochgan ayollarni o‘ldirish kerak” degan gaplarini eshitganini tasdiqlashdi.<sup>18</sup> Bu kabi so‘zlar keng tarqalib, qotillikni odatiy hol sifatida ko‘rsatgan.

Ayollarni yuzini ochgani yoki ijtimoiy faol bo‘lgani uchun eri, otasi yoki begona erkaklar o‘ldirgan. OGPU 1928-yil yanvardan avgustgacha sodir bo‘lgan ko‘plab qotilliklar ro‘yxatini tuzdi. Odatda ayollar pichoqlab yoki kaltaklab o‘ldirilardi. Hujumlar ko‘pincha ochiqchasiga amalga oshirilgan va xabarlar butun jamoaga tarqalgan.<sup>19</sup> Xorazm viloyatida uch oy ichida o‘n ikki ayol o‘ldirilgani qayd etildi. Militsiya xabarida qotillar ko‘pincha qotillikni paranji yechish sabablariga bog‘lamagan:

*“Ayollar o‘ldirilishi holatlarida odatda bevosita qotil (er yoki aka) qotillikning sabablarini faqat oilaviy omillar (rashk, oilani sharmanda qilish) bilan izohlaydi hamda qotillikka siyosiy tus bermaydi. Biroq qotillikka hamrohlik qilgan sharoitlar*

*(ko‘p hollarda jabrlanuvchi ochiq yuz bilan yurmoqchi bo‘lgan yoki allaqachon yuzini ochgan bo‘lgan) bu jinoyatda nafaqat oilaviy va kundalik munosabatlar, balki boshqa omillar ham rol o‘ynaganini taxmin qilishga asos beradi. Bu qotilliklar ... ayollarning ozodligi yo‘lida olib borilayotgan ishlarimizga qarshi bo‘lgan dushman guruhlarining faoliyatini aks ettiradi.*<sup>20</sup>

OGPU hatto sakson kishi imzolagan maktubni qo‘shib, unda “yuzini ochganlarni va ularning yordamchilarini o‘ldiramiz” deb yozilgani haqida xabar berdi.<sup>21</sup>

Yuzini ochgan ayollarning qotilliklarida ko‘pincha sheriklar ham ishtirok etgan. Mashhur voqealardan birida o‘zbek aktrisasi Nurxon o‘ldirilgan. Uni akasi pichoqlagan, ammo otasi (mulla) va bir mahalliy boy ham hibsga olingan. Sababi – ular akasini qasam ichirishib, “sahnaga chiqqani uchun” uni o‘ldirishga majbur qilgan edilar.<sup>22</sup>

Shu bilan birga, ruhoniylarning ayrimlari qotilliklarga undagan bo‘lsa-da, bu to‘lqin faqat anti-kommunistik kuchlarning ishi emas edi. Ko‘plab o‘zbek kommunistlari, militsiya va mahalliy amaldorlar ham ayollarni haqorat qilgan, zo‘rlagan, hatto o‘ldirgan. Faqat ayrim kommunistlar yuzni ochishni qo‘llab-quvvatlashgan. Boshqalar esa, partiya ularga ommalarda ommalashmagan Hujum siyosatini majburiy tatbiq etishni yuklagani uchun norozi bo‘lgan. Buxoroda 18 yoshli Adolat Buxanovanning o‘limi katta rezonans keltirdi. Shahar tarixidagi birinchi ommaviy yuzni ochishdan to‘rt kun o‘tib, eri – partiya nomzodi bo‘lgan yigit uni o‘qishga kirmaslikka majbur qilgan. Adolat esa baribir o‘qishga kirishga uringan. Natijada eri uni o‘ldirdi.<sup>23</sup>

Farg‘ona vodiysidagi bir qishloqda sakkiz ayol Komsomol yig‘ilishida yuzlarini ochishdi. Yig‘ilishdan keyin Komsomol kotibi choyxonadagi erkaklarga yuzini ochgan ayollar fohisha, deb aytdi.<sup>24</sup> OGPUning butun O‘zbekiston shaharlari bo‘yicha qaydlarida davlat xizmatchilari, qishloq raislari va partiya a‘zolari yuzini ochgan ayollarga uyatsiz takliflar qilishgani va ularni fohisha deb atashgani yozilgan. Yuzini ochgan ayollar uchun mahalliy amaldorlar ham ruhoniylar singari dushman edi.

Davlatdagi lavozimli erkaklar yuzini ochgan ayollarga ko‘p hollarda tajovuz qildilar, ayniqsa hukumatdan yordam so‘raganlarga.<sup>25</sup> Ayollar oson nishon edi; hukumat vakillari ularni himoya qilmaganida, go‘yo zo‘rlash ham maqbuldek tuyulardi. Bir militsiya hisobotida shunday deyilgan edi: “Demak, odamlar aytadiki, Partiya ayollarning yuzini ochishini shuning uchun xohlaydi — ularni zo‘rlash uchun.”<sup>26</sup>

Hujum komissiyasi partiya a‘zolariga o‘z xotinlarini yuzini ochishga majbur qilishni va jamoalarda yuzini ochishni qo‘llab-quvvatlashni yuklagan edi.



Ayollarni yuzini ochishga da'vat qilgan partiya a'zolari uchun yagona mukofot ehtimoliy lavozim ko'tarilishi edi. Hujum kompaniyasini rejalashtirganlar mashhur o'zbek partiya arboblari va ruslardan iborat guruh Kommunistik partiyaga turli sabablar bilan qo'shilgan, kommunizm haqida bilimi cheklangan va ko'pincha an'anaviy elita bilan aloqalarini yuqori baholagan erkaklarga tayanishga majbur bo'ldilar. 1920-yillarda o'zbeklarning partiyaga a'zoligi tez sur'atlarda ortdi, biroq partiya a'zolarga deyarli tayyorgarlik ham, nazorat ham bermasdi.<sup>27</sup> Partiya a'zolari ko'pincha boshqa erkaklar singari yuzini ochgan ayollarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishardi.

Ko'plab partiya a'zolari ayollarni yuzini ochishga tayyor bo'lmaganda bundan ham yomoni, ba'zilar ana shu ayollarga hujum qilganida partiya bu xiyonatni diniy odamlarniki singari izohlagan: qanday qilib musulmonlar “Xudo nomidan ayollarga hujum qilayotganlar haqiqiy musulmon emas” desa, Partiya rahbariyati ham Hujumni qo'llab-quvvatlamaganlarni “haqiqiy kommunistlar emas”, balki ishdan bo'shatilishga loyiq dushmanlar deb hisoblagan.<sup>28</sup>

Hujum rahbarlari ayollarning yuzini ochishi uchun ularni o'ldirishlarini ham, bu qotilliklar to'ldirishini ham oldindan kutishmagan. Ular qotilliklarning ko'payishini ruhoniylar va boylar tomonidan provokatsiya sifatida talqin qildilar. Shunda ham partiya amaldorlarining o'zlari ayollarga hujum qilganlari — bu qotillik to'ldirishini yaratgan, ruxsat bergan va davom ettirgan sharoitlarning o'ziga savol tug'diradi.

## **O'zbekistonda femitsidni to'xtatish**

Ayollarni o'ldirish boshqalarni juda samarali qo'rqitdi. Yuzini ochgan ayollar, xoh ixtiyoriy, xoh majburiy, qo'rquvdan qaytib, qaytadan yopindilar. Yuzini ochish tarafdorlari ayollarni nafaqat obro'larini, balki jonlarini ham xavf ostiga qo'yib, yuzlarini ochishga ko'ndirishga urindilar. O'zbek ayol faollari yuzini ochgan ayollarni kuchliroq huquqiy himoya qilishni talab qildilar, biroq bu himoya ayollar tengligi tarafdori bo'lmagan sudyalari, militsiya va mahalliy amaldorlarga bog'liq edi.

Mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi organlar qotilliklarning oldini olmadi, biroq yuzini ochish bilan bog'liq zo'ravonlik qurbonlarini himoya qiluvchi qonunlar kuchaytirildi. 1928-yil avgustida O'zbekiston jinoyat kodeksiga o'zgartirish kiritilib, unda shunday deyildi: “Ayolni o'ldirish yoki uni diniy va maishiy hayot jinoyatlari, ayolning ozodligi bilan bog'liq holda og'ir yaralash kamida sakkiz yil qattiq izolyatsiya bilan jazolanadi.”<sup>29</sup> Qonunning e'lon qilinishi tirik qolgan ayollarni hujumchilarga qarshi da'vo qilishga undadi, biroq bu o'ldirilgan ayollarga yordam bermadi. Qonun matnining o'zi Adliya xalq komissarligining bu jinoyatlarga berilgan izohdagi ikkilanmasini ochib berdi: bu jinoyatlar maishiy hayot bilan bog'liqligi yoki ular davlatning ayollarni “ozod

qilish” siyosatiga qarshi chiqishmi? Yuzini ochgan ayolni o‘ldirish jazosi oddiy qotillik bilan tenglashtirildi va “maishiy hayot” jinoyatlariga beriladigan yengil jazolardan og‘irroq qilib belgilandi.

1928-yilda Ayollar bo‘limi xodimlari o‘ranishni taqiqlashni taklif qilishdi; o‘zbek ayol faollari esa bu taqiqni mitinglar, petitsiyalar va matbuot orqali qattiq qo‘llab-quvvatladilar.<sup>30</sup> Ularning fikricha, agar parangi taqiqlansa, ayollar mamnuniyat bilan yuzlarini ochishar, erkaklar esa ayollarni obro‘sizlik va gunoh uchun shaxsan javobgar qilmay qo‘yishardi. Biroq respublika darajasidagi hukumat ham, SSRI (Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi) Kommunistik partiyasi Ayollar bo‘limi ham parangini taqiqlashni bajarib bo‘lmaydigan va partiya siyosati hamda maqsadlarini noto‘g‘ri tushunish deb rad etdi. 1930-yilda partiya iqtisodiy inqilobdan chalg‘ituvchi masalaga aylanib qolgani sababli Hujum kampaniyasini qisqartirdi.

Partiya yuzini ochish masalasini ikkinchi o‘ringa sursa-da, davlat yuzini ochgan ayollar qotillarini jazolashni kuchaytirdi. 1929-yil apreldan keyin ayolni yuzini ochgani yoki faolligi uchun o‘ldirish endi “maishiy hayot jinoyati” emas edi va u uchun nisbatan yengil jazo berilmas edi. Davlat organlari bu qotilliklarni terroristik harakat sifatida qayd etayotgan edi va 1929-yilda ularning huquqiy maqomi o‘zgartirildi. 64-moddaga ko‘ra, sovetlarga qarshi terroristik harakatlar uchun o‘lim jazosi qo‘llanishi mumkin edi; bu endilikda yuzini ochgan ayollar qotillariga ham tatbiq qilindi.<sup>31</sup> 1930-yilda SSRI hukumati ayollar ozodligi bilan bog‘liq qotilliklarni kontr-inqilobiy jinoyatlar deb e‘lon qildi.<sup>32</sup> Bu huquqiy qayta ta‘riflash hukumat munosabatining o‘zgarganini ko‘rsatdi: endi bu qotilliklar oilaviy yoki urf-odatlariga bog‘liq jinoyat emas, balki davlatga qarshi isyon sifatida baholandi.

1920-yillarning oxirida Sovet davlatining o‘z raqiblariga tobora keskin munosabati va davlat hokimiyatining o‘zbek qishloqlarida kuchayib borishi qotillik to‘lqinini yengishga imkon berdi. Davlat ham ruhoniylarga, ham boy o‘zbeklarga qarshi qattiq choralar ko‘rdi hibsga olish, mol-mulkni musodara qilish, surgun qilish orqali; qishloq jamoalarini esa qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish orqali qo‘rqitdi va “stalinizm” ostida qo‘rquv orqali hukmronlik qildi. Qotillikka da‘vat kamaydi va yuzini ochgani yoki faolligi uchun ayollarni o‘ldirishlar kamaydi (biroq butunlay to‘xtamadi), shu bilan birga ayollarning yuzlarini ochishi ortdi. Bundan tashqari, aholining ko‘proq qismi davlat o‘z qonunlarini ijro etishiga va yuzini ochgan ayollar qotillarini jazolashiga ishonch hosil qila boshladi.

### **Femitsid: Mojaro hududida genderga asoslangan zo‘ravonlik**

Bu femitsid to‘lqini asosan patriarxal qarashlar — ayolning “o‘ziga xos o‘rni” haqidagi umumiy taxminlar, yuzini ochganlarni nopok deb e‘lon qilib ularni bostirishni talab qilgan diniy ulamolarning nutqlari, yuzini ochgan xotin yoki

opalariga ega erkaklarga ko'rsatilgan jamoaviy bosim va davlatning o'jizligi haqidagi keng tarqalgan xabardorlik tufayli yuzaga keldi. Femitsid to'loqining birinchi yilida jazolash juda kam edi; “ayolni o'ldirsang ham qutulib ketasan” degan qarash keng tarqalgan, zo'rash va qotillikni to'xtatadigan to'siqlar deyarli yo'q edi. Kommunistik partiya a'zolari ham boshqa odamlar singari shu sharoitlarda harakat qilgan: ular ham jamoa bosimiga duch kelishdi, diniy davlatlarni eshitishdi va o'zlarining cheklangan mahalliy hokimiyatidan yo'q mashhur bo'lmagan kompaniyani qo'llab-quvvatlash, yo ayollarning faolligini to'sish uchun foydalanishlari mumkin edi.

Ayollar nega bu qadar ko'p hujumga uchragani, zo'rlangani va yuzini ochgani yoki faolligi uchun o'ldirilganini tushunish uchun men to'rt omilga murojaat qilaman. Bu omillar birgalikda javob beradi: ayollarning pokligi uchun xavotir, ijtimoiy beqarorlik sharoitida; guruh yoki olomon zo'ravonligi (linch singari), maqsadi bir toifadagi odamlarni qo'rqitish; femitsid “sharaf jinoyati” sifatida, yaqinlari tomonidan o'z ijtimoiy mavqeini tiklash uchun amalga oshirilgan; qo'zg'atish, ya'ni bu jinoyatlarni amalga oshirish haqida faol ijtimoiy nutq va bosim.

Carroll Smit-Rozenbergning tez o'zgarish davridagi zo'ravon ijtimoiy munosabatlar tahlili genderga asoslangan zo'ravonlikni anglashga yordam beradi. U shunday deydi: tez o'zgarish davrida “qat'iy kiyinish qoidalari va jismoniy odob-axloq me'yorlariga qat'iy rioya qiladigan” iyerarxik jamiyatlar “jismoniy va jinsiy betartiblikni ayniqsa tahdidli” deb biladi. Shu sharoitda bunday jamiyatlar qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatni “jinsiy jihatdan xavfli va jismonan ifloslantiruvchi” deb ko'radi va qabul qilinadigan chegaradan tashqariga chiqadiganlarni “qat'iy nazorat qilish”ga intiladi.<sup>33</sup>

1917-yildan keyingi dastlabki yillarda Sovet davlati Markaziy Osiyoda islomiy muassasalar va boylarni mulksizlantirishga qaratilgan harakatlarini amalga oshirdi, natijada zo'ravon qarshilik yuzaga keldi va davlat bosmachilarga qarshi qariyb o'n yil kurashdi. Harbiy choralar bilan bosmachilarning aksariyat faoliyatini bostirganidan so'ng davlat bu radikal dasturdan chekinishga majbur bo'ldi. Ammo 1925-yilda davlat boylarni yer islohoti orqali yana mulksizlantirishni boshladi va 1927-yilda musulmon ruhoniylariga qarshi chiqib, ularning muassasalarini yopdi. Agar Hujum amalga oshmaganida ham ko'plab o'zbeklar davlatga qarshi zo'ravonlik harakatlariga qo'shilishardi. 1929–1930-yillarda davlat paxta yetishtirish hududlarida tezkor kollektivlashtirishni boshlaganida, yangi hujumlar va qotilliklar to'loqini yuz berdi — bu safar kollektivlashtirish tarafdorlari bo'lgan faollar va yer musodarasini qo'llab-quvvatlagan qishloq kengashi a'zolariga qarshi.<sup>34</sup>

O'zbek jamiyati iyerarxik edi, va o'zbek ayollari tanasi paranji va chachvon bilan chegaralangan edi. Hujum O'zbekistondagi tezkor, majburiy o'zgarishlarning bir qismi bo'lib, paranjini taqiqlash kompaniyasi erkaklarning ayollar ustidan hokimiyatiga hamda o'zbeklarning ruslardan ajralib turishiga qarshi davlatning

hujumi sifatida qabul qilindi. Din, xususiyl mulk va boylarga qarshi bir vaqtning o‘zida olib borilgan davlat siyosati sharoitida, ayollarning yuzini ochishi ijtimoiyl jihatdan “ifloslantiruvchi” hodisa sifatida yanada kattalashtirib ko‘rsatildi. Yuzini ochgan ayollarning o‘ldirilishi jamiyatning buzilgan chegaralarini qayta tiklash va ijtimoiyl tartibning hech bo‘lmaganda bir qismini kuch bilan himoya qilish urinishlari edi.

Ko‘plab qotilliklar oila a‘zolari tomonidan sodir etilgan bo‘lsa-da, zo‘rlash va tajovuzlar, shuningdek, yuzini ochgan va faol ayollarga qarshi eng ko‘p e‘lon qilingan qotilliklar begona erkaklar guruhlari tomonidan amalga oshirilgan. Bunday jinoyatlar ayollarning qotil yoki zo‘rlovchi bilan shaxsiyl aloqasi tufayli emas, balki ularning faoliyati sababli nishonga olinganini ko‘rsatadi. Shu sababli, ayrim qotilliklarni “sha‘n qotilligi” sifatida tahlil qilish mumkin bo‘lsa-da, yuzini ochgan ayollarga qarshi keng qamrovli zo‘ravonlik siyosiy faoliyat va ijtimoiyl bo‘linishlar bilan bog‘liq edi. Bu zo‘ravonlik aynan ayollarga qarshi bo‘ldi, chunki jamiyatda ayollar erkaklarga bo‘ysunishi kerak, degan qarash kuchli edi va ular huquqiy himoyasiz edi. Qotilliklar to‘lqini o‘z mohiyatiga ko‘ra, AQShdagi irqiy lynch amaliyotlari bilan qiyoslanishi mumkin. Antilining harakati faollari 1880-yillardan 1930-yillargacha uch mingga yaqin afroamerikalik lynch yo‘li bilan o‘ldirilganini taxmin qilgan. Lynchlar odatda guruh bo‘lib amalga oshirilgan va afroamerikaliklarni ba‘zan aniq bir ayblovl asosida, ba‘zan esa faqat ularning irqi tufayli o‘ldirgan. Sotsiolog Oliver C. Cox yozganidek, lynch qilishning maqsadi “nishonga olingan guruhning bo‘ysunish holatidan chiqishga urinishini bostirish yoki ularni yanada pastroq ijtimoiyl maqomga tushirish” edi. U, shuningdek, lynch qilish va uning doimiy tahdidi “oq tanlilar hukmronligini saqlab qolish” vositasi sifatida xizmat qilganini va davlatning huquqiy kuchsizligi sababli afroamerikaliklar orasida “doimiy qo‘rquv”ni yuzaga keltirganini ta‘kidlagan.<sup>35</sup>

Ayollarga qarshi nishonli qotilliklar shunchaki yakka shaxslarning bexosdan qilgan jinoyati emas edi; ular oldindan rejalashtirilgan va ko‘pincha guruhli tashkilotchilikni o‘z ichiga olgan. Yuzini ochgan, o‘qishga borgan yoki davlat dasturlariga qo‘shilgan o‘zbek ayollarini o‘ldirgan erkaklar o‘z qurbonlariga shaxsiyl nafratini bildirgan, lekin shu bilan birga davlatga va Kommunistik partiyaga qarshi muvofiqlashgan qarshilikni ham ifoda etgan. Bu bilan ular jamiyatda ayollarning taqdiri va tanasi ustidan hukmronlik qiluvchi kuch davlat emas, balki mahalliy erkaklar ekanini ko‘rsatishga intilgan. Ushbu qotilliklar siyosiy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, davlatga qarshi kurash va boshqa ayollarni qo‘rqitish uchun amalga oshirilgan. Ko‘plab qotilliklar ataylab dahshatli shaklda bo‘lib, kesish, parchalash va jasadni ramziyl tahqirlash orqali amalga oshirilgan.

Erkaklar hukmron tuzilmasi ayollarga qarshi tengsizlikni kuch bilan o‘rnatish uchun butun bir guruhni qo‘rqitish yo‘li bilan shafqatsiz urinish qilgan. Ba‘zi olimlar bunday “terror” tushunchasi “keng auditoriyani qo‘rqitishga qaratilgan zo‘ravonlik” haddan tashqari keng deb hisoblashadi.<sup>36</sup> Ammo 1920-yillarning o‘zidayoq o‘zbek ayollarini o‘ldirishni tasvirlaganlar bu hodisani “terrorizm” deb

atashgan. Uni “terrorizm” sifatida ta’riflash, bu qotilliklar to’lqinini to’xtatishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Ko’plab yuz ochish qotilliklari erlar yoki boshqa oila a’zolari tomonidan amalga oshirilgan edi. Yuz ochish tarafdori bo’lgan o’zbek ayol faoli Saodat Shamsieva shunday eslaydi:

“Mahalladagi yoki qishloqdagi har bir ayol yoki qiz paranji tashlab yuborsa, uning otasi, eri yoki akasi uni o’ldirardi va bizning oldimizga kelib: ‘Uni men o’ldirdim, chunki uning ochilib meni sharmanda qilishini xohlamadim’, deb aytardi.”<sup>37</sup> Bu holatlarda zo’rlash qotillikka qo’shilmaganiga deyarli ishonchimiz komil, chunki zo’rlash sharafiga oid muammolarni yanada kuchaytirgan bo’lardi, holbuki qotillik “sharaf” masalasini yopib qo’ygan. Bunday qotilliklar “sharaf uchun qotillik” sifatida ko’riladi. Ular odatda erkaklarning ayollar jinsiyati ustidan nazoratiga oid ijtimoiy mafkuralar, shuningdek, boshqa oilaviy zo’ravonlik shakllari bilan bog’liq deb hisoblanadi, siyosiy maqsadlar yoki ijtimoiy mojarolar bilan emas.<sup>38</sup> So’nggi ilmiy tadqiqotlar “sharaf uchun qotillik”larda o’ldirishning ochiqdan-ochiq “oqlanishi” jamiyatdagi tartibni saqlash talabiga tayanishini ko’rsatadi. Bu “sharaf” tushunchasi erkaklarning (oilaviy yoki er-xotin munosabatlaridagi) ayollarni, xususan, ularning jinsiy xatti-harakatlarini nazorat qilishida mujassam bo’ladi haqiqiy, gumon qilingan yoki ehtimoliy.<sup>39</sup> Demak, sharaf uchun qotillikni oilaviy zo’ravonlik doirasida ko’rish mumkin. “Sharaf” tushunchasi qurbon va oilasi o’rtasidagi aloqaga asoslanadi, ya’ni ayolning harakati oilaning “sharafini” kamsitgan deb baholanganida. Purna Sen ta’riflaganidek, sharafiga oid jinoyatlar ko’pincha boshqa ayol oila a’zolarining ham ayollarni nazorat qilishida va jazo bo’yicha jamoaviy qarorlar qabul qilishida namoyon bo’ladi.<sup>40</sup> Shunday qilib, ba’zi Hujum davridagi qotilliklarda oila a’zolari yuzini ochgan ayolni o’ldirishni yo’qotilgan sharafni tiklash sifatida oqlagan. Ammo bunday ayollarga qarshi begona kishilar tomonidan amalga oshirilgan hujumlar, zo’rlashlar va qotilliklar bu tushunchaga sig’maydi. Bu sharh to’satdan yuzaga kelgan, siyosiy asoslangan qotillik to’lqinini izohlab bera olmaydi.

Ba’zi islomiy va noislomiy jamiyatlarda sharaf uchun qotillik ijtimoiy nazorat vositasi bo’lib kelgan.<sup>41</sup> Sharaf uchun qotilliklar deyarli har doim “Islomning bir qismi emas, balki madaniy odat” sifatida izohlanadi, go’yo bu ularni qabul qilinadiganroq ko’rsatadi yoki hech bo’lmaganda Islomni bu jinoyatlardan himoya qiladi.<sup>42</sup> Islom bunday qotilliklarni ma’qullasin yoki qoralasin, baribir O’zbekistondagi yuz ochish qotilliklarini rag’batlantirgan diskurs erkaklarni o’z oilalaridagi yoki jamoalaridagi ayollarni o’ldirishga da’vat qilish uchun islomiy da’volardan foydalangan.

Biroq “sharaf uchun qotillik” tushunchasi O’zbekistondagi qotillik to’lqinini izohlash uchun yetarli emas. Erkaklar bu harakatni o’zlari “an’ana” deb bilgan

narsaga muvofiq bajarmaganlar. Madaniy jihatdan, ayollarga qarshi bu zo‘ravonlik to‘lqini g‘ayritabiiy edi. Etnografik manbalarda ayollarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik qayd etilgan bo‘lsa-da, o‘zbeklar sharaf qoidalarini “tartibsiz” ayollarni o‘ldirishni talab qiladigan tarzda talqin qilganliklariga hech qanday dalil yo‘q.<sup>43</sup> Bundan tashqari, mustamlaka ostidagi dunyoning boshqa qismlarida qonunlar qayta yozilib, G‘arbning “rashk jinoyatlari” tushunchalari ayollarning patriarxal tartibni buzishini qotillik ishlarida yengillashtiruvchi omil sifatida ko‘rishga olib kelgan bo‘lsa, Sovet qonunchiligida bunday “sharaf” asosidagi yengillashtiruvchi sabab mavjud emas edi.<sup>44</sup> 1920-yillarda qonun doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqilardi, lekin zo‘ravonlik jinoyatlarida yagona yengillashtiruvchi omil ijtimoiy tabaqa edi. O‘zbeklar orasida patriarxat gender munosabatlarini tartibga solgan bo‘lsa-da, Hujum davrida tarqalgan “paranjisini yechgan ayollarni gunohi uchun o‘ldirish kerak” degan g‘oya butunlay yangi edi va juda tez yoyildi. Kampaniya tashabbuschilari bunday javobni kutilmagan holda oldilar.

O‘zbekistonda zo‘ravonlik sodir bo‘lgan jamiyatning dini islom edi va ushbu zo‘ravonlikni targ‘ib qilgan va oqlagan diniy g‘oyalar ayollarning jamoat hayotidagi ishtirokini rad etuvchi islomiy talqinlarga asoslangan edi. Hujum boshlanganida, musulmon ruhoniylarning aksariyati yuz ochishga qarshi chiqdi va ko‘plari yuzini ochgan ayollarga qarshi zo‘ravonlikka da‘vat qildilar. Rossiya mustamlakachilik davrida (1865–1917) Markaziy Osiyoning sunniy ruhoniylari modernizatorlik va qadimchilik oqimlarini rivojlantirdilar. Jadidlar, ya‘ni modernistlar, islomni qayta o‘ylash va islomiy ta‘lim hamda institutlarni isloh qilishni targ‘ib qildilar; ular raqib ulamolarni “qadimchilar” deb atar, ya‘ni mutaassiblikda ayblar edilar. 1920-yillarga kelib, modernizatsiyalangan islom tarafdorlari o‘zlarini yer islohoti va ayollar huquqlarini ilgari surgan kommunistlar bilan umumiy maydonda deb hisobladilar; ular nazarida qadimchilar o‘z hokimiyatini saqlab qolish uchun xalqning johilligiga tayanar edilar. Qadimchilar esa ham kommunistik tartibga, ham uni qo‘llab-quvvatlaganlarga qarshi edilar, ularni dini yo‘qotayotgan kuch sifatida ko‘rardilar. Ba‘zi modernist ruhoniylar yuz ochishni ochiqchasiga qo‘llab-quvvatlab, islom qonunlari ayollardan parangi va chachvon kiyishni talab qilmasligini e‘lon qildilar. Qadimchi ruhoniylar esa yuz ochishni do‘zaxga eltuvchi gunoh deb e‘lon qildilar, yuzini ochgan ayollarni fohisha deb atadilar va ularga qarshi zo‘ravonlikni targ‘ib qila boshladilar.<sup>45</sup> Islom ushbu femitsid to‘lqinini yaratmagan bo‘lsa-da, qadimchilar o‘z va‘zlari orqali qotillikka da‘vat qildilar, shunday qilib erkaklarning kengroq ijtimoiy o‘zgarishlar va davlatning oilaviy hayotga aralashuviga qarshi g‘azabini terroristik harakatlarga aylantirishga yordam berdilar.

Targ‘ibot linchlarda va “sharaf qotilliklari”da muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonlik qotilliklar haqidagi ma‘lumotlarda ham jinoyatchilar ko‘pincha bunday ishni amalga oshirishga ko‘ndirilibgina qotillikka qo‘l urganliklari qayd etilgan. Hatto “sharaf qotilligi” ijtimoiy nazoratning qabul qilingan shakli sifatida

qaraladigan jamiyatlarda ham qotillar ijtimoiy bosim ostida sharafni tiklash uchun qotillikka undalgan.<sup>46</sup> O‘zbekistonda ayrim musulmon diniy rahbarlari ana shunday rolni o‘ynab, yuzini ochgan ayollarni jazolash zarurligiga boshqa o‘zbeklarni ishonitirish uchun so‘z kuchidan foydalandilar.

Ushbu qotillik to‘lqini davomli madaniy hodisa emas, balki siyosiy zo‘ravonlikning qisqa portlashi bo‘lib, u keyinchalik ayollar an‘anaviy o‘ranishni tark etgan bo‘lsalar-da, asta-sekin tugadi. Targ‘ibot radikal ijtimoiy silkinishlar va hukumatning bosimi natijasida kamaygach, qotilliklar ham kamaydi.

1930-yilda bir nechta omillar o‘zgardi. O‘zbekistondagi kundalik hayotga aralashuvni kamaytirish o‘rniga, Sovet hukumati majburiy va tezkor kollektivlashtirishni boshlab, iqtisodiy o‘zgarishlarni kuchaytirdi. Boy tabaqalarni musodara qilish yanada keskinlashdi, Kommunistik partiya esa ataylab qishloq kambag‘allarini boylarning yer va mol-mulklarini tortib olishga safarbar qildi. 1930-yillarning boshida minglab badavlat dehqonlar hibsga olinib, surgun qilindi va ba’zida otib tashlandi. Bosmachilar guruhlar ham 1930-yillarning boshlarida butunlay bostirildi va o‘zbek jamiyati davlatga qarshi hech qanday qurolli qarshilikni davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi.

Hujum kampaniyasi deyarli 1930 yilda tugadi, o‘sha paytda Kommunistik partiya Xotin-qizlar bo‘limini tarqatib yubordi.<sup>47</sup> Ammo yuz ochishni targ‘ib etish sa’y-harakatlari davom etdi va ular kollektivlashtirish jarayoniga hamrohlik qildi. 1930-yillarning o‘rtalariga kelib, ko‘proq ayollar yuzini ochgan, yopinib yurgan ayollardan esa son jihatdan kamroq bo‘lgan. 1930-yillarda Sovet davlati va Kommunistik partiya O‘zbekistonda qo‘rquv va zo‘ravonlik orqali hukmronlik qildi. Yuzini ochganlarga qarshi zo‘ravonlikka undaganlar (shuningdek, boshqalar ham) kollektivlashtirish bilan bog‘liq qamoqqa olishlar va diniy e’tiqodlarga qarshi repressiyalar oqimida yo‘q qilindi. Yuzini ochgan ayollarni o‘ldirishga undash kamaydi — bunga sabab ayollarni yuzini ochishga chorlaydigan tashviqot tugagani emas, balki davlatning zo‘ravonlikni amalga oshirish imkoniyatlari yanada kuchaygani edi.

Davlat yuz ochish bilan bog‘liq qotilliklarni 1930-yillarda 1920-yillardagidan ko‘ra jiddiyroq ta’qib qildi va shunga ko‘ra aybdor deb topilganlarga yanada og‘irroq jazo — sakkiz yil qamoq o‘rniga o‘lim jazosi belgilandi. Bunga sabab, davlat yuzini ochgan ayollarning o‘ldirilishini endi “urf-odat jinoyati” emas, balki qarshi inqilobiy harakat sifatida baholashga kelgani edi. O‘zgartirilgan qonun bunday qotilliklarni 1930-yillarda to‘xtatishda muhim rol o‘ynadi, biroq bu ko‘proq Stalinizm tizimi o‘rnatgan davlat qo‘rquvi orqali amalga oshdi, jamiyatning qarashlari o‘zgarganidan emas. Ya’ni, O‘zbekiston anti-sovet va pro-sovet guruhlar o‘rtasidagi ziddiyat hududi bo‘lganida, ayollarga qarshi jinsiy zo‘ravonlik, zo‘rlash va qotillik uchun sharoit mavjud edi. 1930-yillarda Sovet davlatiga qarshi ochiq qarshilik bostirilgach, O‘zbekiston endi ochiq va oshkora to‘qnashuv hududi bo‘lmay qoldi, jinsiy va genderga oid zo‘ravonlik esa u yerda “oddiyroq” ko‘rinishlarda davom etdi.

Iroq Kurdistonidagi “sharaf qotilliklari”ni muhokama qilar ekan, sotsiolog Shahrzad Mojab shunday deydi: “Fuqarolarning yashash huquqini hurmat qilmaydigan davlatda sharaf qotilliklarining tugashini kutib bo‘lmaydi.”<sup>48</sup> Menimcha, davlatning sharaf qotilliklarini, ommaviy qatl yoki boshqa zo‘ravonlik turlarini to‘xtata olish qobiliyati ko‘proq uning buni qilishdagi irodasi va imkoniyatlariga bog‘liqdir, fuqarolarning huquqlarini qay darajada hurmat qilishiga emas. Sovet Ittifoqi 1920–1930-yillarda fuqarolarning huquqlariga deyarli e’tibor bermagan, biroq yuzini ochgan ayollarni o‘ldirishga qarshi qattiq qonunlar baribir tiyib turuvchi ta’sir ko‘rsatgan. Ideal dunyoda, davlatning fuqarolarning huquqlarini kengroq hurmat qilishi sharaf qotilliklari, irqchilik yoki ayollarga qarshi qaratilgan qotilliklarni taqiqlashga olib keladigan sharoit yaratishi mumkin. Biroq amalda, davlatning qonunni ijro etish qobiliyati uning niyatiga, ta’sir doirasiga, xodimlariga va zo‘ravonlik vositalarini monopoliya qilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.